

QONUN VA BIZ

*Nurbojev Baxtiyor Shodiyor o'g'li**O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi**3-o'quv kurs 318-guruh kursanti*

Hozirgi kunda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, har bir insonning hayoti, sog'lig'i hamda mol-mulkini turli xavf-xatarlardan ishonchli himoya qilish masalalari juda muhim hisoblanadi. Shu bois ham yangi O'zbekiston tarixida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan ilk islohotlar aynan fuqarolarning salomatligi va xavfsizligini ta'minlash sohalarida boshlandi.

Bunda asosiy e'tibor ichki ishlar organlarini aholiga o'z vaqtida hamda sifatli yordam ko'rsatadigan, har bir xodim tomonidan xalq manfaatlariga xizmat qilishni o'z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo'naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga qaratildi. Mamlakatimizda barcha davlat idoralari kabi ichki ishlar organlarida ham rahbarlarning fuqarolar bilan muloqot qilish, jinoyatlarni mahallalarning o'zida muhokama etish, eng chekka qishloqlarga borib, aholining dardini eshitish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Shuni alohida aytish joizki, islohotlar davomida, adashib jinoyat sodir etgan shaxslarni ijtimoiy hayotga to'g'ri yo'naltirish, jamiyatning munosib vakiliga aylanishi uchun ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, 2019-yildan boshlab, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining "Mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standartlari qoidalari", boshqacha aytganda, Nelson Mandela qoidalari milliy qonunchiligimizga to'liq implementatsiya qilindi. Buning doirasida mahkumlarga ilk bor, saylash, pensiya va ijtimoiy sug'urta pullarini olish, kasb egallash, ta'lim hamda sifatli tibbiy yordam olish huquqi berildi. Ularga mehnat qilish, yaqinlari bilan suhbatlashish va uchrashish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi. Shuningdek, sodir qilingan jinoyatdan chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan mahkumlarni afv etish orqali ozodlikka chiqarish, adashib, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolgan fuqarolarni, jumladan, davlatimiz rahbarining topshiriqlari asosida o'tkazilgan "Mehr" aksiyalari doirasida jangovar harakatlar bo'layotgan hududlardan olib kelinganlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish tizimi yaratildi.

Umuman olganda, ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan har qanday ko'rinishdagi qadr-qimmatni kamsitish, qiynoq holatlariga yo'l qo'ymaslik hamda fuqarolar bilan munosabatlarda "inson omili" ta'sirini kamaytiruvchi zamonaviy axborot texnologiyalari amaliyotga joriy etilmoqda.

Mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash va hurmat qilish masalasiga katta ahamiyat qaratilyapti. Shu bois Prezidentimiz Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida inson huquq hamda erkinliklarini ishonchli himoya qilish — davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilanishi lozimligini ta'kidlab

o‘tdi. Darvoqe, O‘zbekiston tarixida birinchi marta o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan va har qanday davlatning rivojlanish yo‘lini belgilab beruvchi oliy qonun hujjati referendumda bevosita xalq tomonidan qabul qilindi. Shu bilan birga, mehnat jamoalari, oliygohlar, mahalla faollari va ziyolilar bilan bo‘lib o‘tgan muhokamalarda ham qo‘shimcha takliflar kelib tushdi. Har bir taklif ortida inson taqdiri va uning haq-huquqlari turganligini inobatga olib, xalqaro-huquqiy hujjatlar va 190 dan ortiq davlatlar tajribasi o‘rganildi, loyiha 6 turdagi ekspertizadan o‘tkazildi.

Yangi Konstitutsiya “inson — jamiyat — davlat” paradigmasiga asoslangani, unda barcha toifalarning — yoshlar, ayollar, nogironligi borlar, o‘qituvchilar, hatto jinoyat sodir etgan shaxslarning huquq va manfaatlari aks etgan. amaldagi Konstitutsiyamiz 65 foizga yangilandi.

Jumladan, inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan umum e’tirof etilgan “Xabeas korpus” instituti konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi.

Jumladan:

— aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinadi;

— hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi;

— shaxs sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas kabi normalar endi Bosh qomusimiz bilan tasdiqlanadi. Yana bir yangilik — ilk bor shaxsni ushlab chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turish asoslarini tushuntirish bo‘yicha “Miranda qoidasi” joriy etiladi. Bu orqali davlatimiz rahbarining qat’iy talabi, ya’ni “Hech kimning unutishga haqqi yo‘q — qonun talablari va inson huquqlari — biz uchun oliy qadriyat” ekanligini har bir xodim tomonidan bajarilishi ustidan kunlik nazorat tizimi o‘rnatiladi.

Mazkur talab va boshqa yangi normalarning amaliyotga tatbiq etilishi inson huquqlarini ishonchli himoyalash, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni rivojlantirishga xizmat qiladi, albatta. Muxtasar aytganda, avvalo, xalqimizni rozi qilish, xizmat faoliyati orqali fuqarolarga yanada qulayliklar yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettiriladi. Jamiyat hayotining barcha jabhasida korrupsiyaga qarshi kurashish dolzarb vazifaga aylandi. Jumladan, ichki ishlar organlarida ham bu borada tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish, ushbu jarayonga jamoatchilikni keng jalb etish hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini shakllantirish maqsadida vazirlikning tegishli buyrug‘i ishlab chiqilgan. Ushbu buyruqqa asosan vazirlikda Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi, tarkibiy tuzilmalar hamda hududiy ichki ishlar organlarida ishchi guruhlar tuzilgan. Komissiya tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar dasturi hamda Korrupsiyaga qarshi

kurashish agentligi va Ichki ishlar vazirligi hamkorligida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi ham tasdiqlangan.

2022-yil yakuni bo'yicha komissiya tomonidan vazirlikning tarkibiy va hududiy ichki ishlar organlari faoliyati tekshirildi. O'rganish natijalariga ko'ra, korrupsiyaviy xavf-xatar darajasidan kelib chiqib ular "qizil", "sariq", "yashil" hudud toifalariga ajratildi. 9-dekabr — Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan o'tkazilgan videoroliklar tanloviga ichki ishlar organlari xodimlari va fuqarolar tomonidan tayyorlangan 42 ta videorolik kelib tushdi. Faxrli o'rinlarni egallagan va nominatsiya g'oliblari IIVning diplom va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi. Korrupsiyaga qarshi kurashishni targ'ib qiluvchi ushbu videoroliklar ijtimoiy tarmoqlar orqali namoyish etildi.

Davlatimiz rahbari boshchiligida bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi inson qadrini ulug'lashga, uning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Ushbu ezgu, savobli hamda mas'uliyatli vazifalarni bajarish ko'p jihatdan huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining samaradorligiga, shuningdek, undagi kadrlarning salohiyati, ma'naviyati, intizomi va albatta, sadoqatiga bevosita bog'liq. Ayniqsa, so'nggi yillarda davlatimiz rahbarining tashabbuslari va hayotbaxsh g'oyalari asosida ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan islohotlar tizimni xalq manfaatlariga xizmat qiladigan, aholining kundalik muammolari bilan hamnafas ishlaydigan, xalqparvar tuzilmaga aylantirmoqda, desak, xato bo'lmaydi. Prezidentimizning "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ushbu yo'nalishdagi yana bir ulkan qadam bo'ldi.

Endi xizmatga nomzodlarni tanlashning adolatli va shaffof tizimi yaratilib, o'rnatilgan tartiblar tubdan soddalashtiriladi va byurokratik to'siqlar bartaraf etiladi. Shu maqsadda «Ye-nomzod» yopiq axborot tizimini yaratish orqali xizmatga qabul qilish jarayonlari to'liq raqamlashtiriladi. Tanlov jarayonida suhbat o'rniga test sinovlari va psixofiziologik (poligraf) tekshiruvdan o'tkaziladi. Kadrlar bilan ishlashda ham yangi tartib joriy etildi. Unga ko'ra, xizmatga qabul qilingan xodimlarga tayinlanadigan dastlabki sinov muddati bir yilgacha uzaytiriladi. Ular IIV Malaka oshirish institutida uch oylik boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagandan so'nggina lavozimga tayinlanadilar. 2023-yil 1-sentyabrdan e'tiboran huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l-patrul va patrul-post xizmati bo'linmalari xodimlarini "Fuqarolar bilan ishlash moduli" bo'yicha uzluksiz o'qitish amaliyoti yo'lga qo'yiladi. Ular IIV Malaka oshirish institutida har uch yilda bir marotaba o'qitiladi. Maxsus sinovlarni muvaffaqiyatli topshirgan xodimlarga kelgusida ushbu sohada xizmat qilish huquqini beruvchi sertifikat topshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси (2021 йил 10 сентябр гача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан) –Т.: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021 й. –560 б.
2. Kriminologiya: Darslik/ Z. S. Zaripov, A. S. Yakubov, G. A. Avanesov vaboshq.; prof. Z. S. Zaripov tahriri ostida. –Т.: O‘zbekiston Respublikasi IV Akademiya, 2008. –420 б.
3. Kriminologiya: Darslik / Z. S. Zaripov, Q. R. Abdurasulova, Y. S. Pulatov vaboshq.; prof. Z. S. Zaripov tahriri ostida. –Т.: O‘zbekiston Respublikasi IV Akademiya, 2006. –474 б.
4. Гуров А.И. Организованная преступность / А.И. Гуров // Криминология : учеб. пособие / Г.И. Богуш, О.Н. Ведерникова, М.Н. Голоднюк [и др.] ; науч. ред. Н.Ф. Кузнецова. –2-е изд., перераб. и доп. –М. : Проспект, 2012. –73 с.
5. Долгова А.И. Преступность, ее организованность и криминальное общество / А.И. Долгова. –М. : Рос. криминол. ассоц., 2003. –183 с. <https://lex.uz/docs/-111453>
7. <https://kun.uz/uz/news/2021/10/08/uyushgan-jinoyatchilik-darajasi-boyicha-davlatlar-reytingi-elon-qilindi-ozbekiston-royxat-ortasida>
8. Абдужалилов, Д., & Арипова, А. (2021). КУЛЬТУРА ОБЩЕНИЯ СОТРУДНИКОВ ОВД. Scientific progress, 2(1), 328-332.
9. Абдувалиев, Н., & Арипова, А. (2021). ВАЖНОСТЬ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНСПЕКТОРОВ ПРОФИЛАКТИКИ ПРАВОНАРУШЕНИЙ. Scientific progress, 2(1), 333-335.
10. Арипова, А. (2021). ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИДА МУЛОҚОТ МАДАНИЯТИ. Scientific progress, 1(6), 913-921